



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MA'RIFIY ROMANDA TAHLIL VA TALQINGA KOMPLEKS YODASHUVNING ROLI

Jo'raqulova Xumora Shuxratovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 3-bosqich
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimovning ma'rifiy romanlari haqida umumiy mulohazalar berilgan. "Hamid Olimjon" ma'rifiy-biografik romani kompleks tahlilga tortilgan. Roman sujet, tema va tematika, obraz va obrazlilik, uslub va badiiy til nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asar tilini tahlil qilish orqali muallifning subyektiv pozitsiyasiga baho beriladi.

Kalit so'zlar: Ma'rifiy roman, uslubiy individuallik, publitsistik uslub, falsafiy uslub, hissiy obrazli uslub, estetik uslub.

РОЛЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К АНАЛИЗУ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ РОМАНЕ

Журакулова Хумора Шухратовна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои, базовый докторант 3 курса

Аннотация

В данной статье приведены общие рассуждения литературоведа, академика Наима Каримова о просветительских романах. Просветительно-биографический роман «Хамид Олимжон» подвергнут комплексному анализу. Роман рассматривается с точки зрения сюжета, темы и тематики, образа и образности, стиля и художественного языка. Путём анализа языка произведения даётся оценка субъективной позиции автора.

Ключевые слова: учебный роман, стилистическая индивидуальность, Публицистический стиль, Философский стиль, Эмоционально-образный стиль, Эстетический стиль.

THE ROLE OF A COMPLEX APPROACH TO ANALYSIS AND INTERPRETATION IN THE EDUCATIONAL NOVEL

Jo'raqulova Xumora Shukhratovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, 3rd-
year Basic Doctoral Student

Abstract

This article presents general reflections of the literary scholar and academician Naim Karimov on enlightenment novels. The enlightenment-biographical novel "Hamid Olimjon" is subjected to a comprehensive analysis. The novel is examined from the perspectives of plot, theme and thematic scope, character and imagery, style, and artistic language. By analyzing the language of the work, an evaluation of the author's subjective position is provided.

Keywords: Educational novel, stylistic individuality, Journalistic style, Philosophical style, Emotional-figurative style, Aesthetic style.

Keyingi yillarda nafaqat adabiyotshunoslik, balki badiiy adabiyotning epik janrlari tabiatida ham muayyan darajada esselashuv jarayoni sodir bo'ldi. Jumladan, N.Karimov qalamiga mansub Cho'lpon, Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir, U.Nosir haqidagi ma'rifiy romanlarda bu hol ochiq ko'zga tashlanadi. Muallif aniq ijodkor shaxsiyati bilan bog'liq voqeahodisa va hayotiy holatlarni tasvirlashda o'z shaxsiy mulohazalariga erk beradi. Boshqacharoq aytganda, ko'zlangan ma'rifiy maqsad taqozosiga ko'ra roman qisman esselashadi. Bu hol asar kompozitsiyasi, ifoda ko'lami va tematikasida namoyon bo'ladi. Naim Karimov ma'rifiy romanlari kompozitsion qurilishi jihatdan, deyarli bir-biriga yaqin. Asarlari qahramonning tug'ilajak maskani, uning ijtimoiy kelib chiqishi ta'rifidan boshlanadi. So'ng qalamga olingan ijodkor obrazining bolalik, maktab va o'smirlik yillari, talabalik, o'qish va mehnat, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayoti fonida ijod onlari tasvirlanadi. Bu romanlarning ifoda ko'lami ham vertikal, ham gorizontaal jihatidan keng. Olim-yozuvchi qahramonlarining qadami yetgan joygacha bo'lgan manzillarni romaniga kiritishga, ularning shoir va shaxs sifatida, olim va davlat arbobi sifatida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini qalamga olishga erishadi. Naim Karimovning ma'rifiy romanlarida tema – aniq bir ijodkor obrazidir. Muallif zamondosh shoirlarning obrazlarini qalamga olganligi sabab, bu romanlari tematikasi ham bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Barchasida umuminsoniy masalalar: muhabbat, oila munosabatlari, tarixiy voqealar, adolatsizlik, jamiyatdagi muammolar bilan bir qatorda ularga qahramonlarining munosabati qalamga olinadi. Muallifning ma'rifiy romanlarida shaklan yaxlit bir sujet yo'q, ammo keltirilgan har bir voqea yoki hujjat bir-biri bilan bir mantiqiy izchillikda bog'langan. Bu romanlar mutolaa qilinganidan so'nggina o'quvchi tafakkurida qahramon hayoti yaxlit bir sujet sifatida shakllanadi.

N.Karimov goh tarixiy davrga, goh shoir, adib va dramaturglar biografiyasiga murojaat qilarkan, bayonni adabiy-tanqidiy hamda ilmiy-ommabop shakl hamda mazmun asosiga quradi. Ma'rifiy roman, bot-bot ta'kidlaganimizdek, sof badiiy nasr namunasi bo'lmaganligi tufayli, unda yozuvchining uslubi ham badiiy asar ijodkorlarinikiga qaraganda o'ziga xos bo'ladi. Aniq qilib aytganda, adabiy-tanqidiy uslublarda bo'ladi. Naim Karimov romanlarida publitsistik, falsafiy, hissiy obrazli, estetik uslublarning barchasi qorishiq tarzda qo'llanadi. Naim Karimov o'z hayotiy tajribasiga, qo'l ostidagi materiallarga suyanadi. Asariga qahramon sifatida olgan obrazlarining hayotini o'ziga ma'lum rakurslarda tasvirlaydi. Muhimi, bu tipdagi asarlar qo'yilgan masalaning tugal yechimini taqdim etishga da'vo qilmaydi. Naim Karimovni ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning qahramonlari xarakteriga ta'siri va bu ta'sirning qanday asar bo'lib tug'ilishi ko'proq qiziqtiradi. Ya'ni, badiiy asar biografiyasi ham obraz biografiyasi qadar muallif uchun ahamiyatli. Shu bilan birga, yozuvchi-olim uslubining shakllanishida uning qaysi toifa o'quvchilariga mo'ljallab yozganligi ham ahamiyatli sanaladi. Adabiyotshunos Izzat Sulton uslubning shakllanishi haqida to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bu yozuvchi ijodining hamma komponentlariga (hayotiy material tanlash, ... adabiyotning qaysi turi va janrida asar yozish va boshqalarga), ayniqsa, asarning tili masalasiga oid qoidadir"[2; 400-b.]. Naim Karimov ma'rifiy romanlarining tili tushunarli va ravon. Muallif romanlarining tilini imkon qadar badiiylashtirishga intiladi. Quruq akademizm va hujjatilik bilan cheklanishni istamaydi. Misol tariqasida, "Hamid Olimjon" ma'rifiy-biografik romani tilini tahlil qilsak: Asarda an'anaviy obrazli ifodalar bilan birga faqat muallifga xos tasvirlar ham talaygina. Shu qatorda, xalq maqollari, iboralari ham o'rni bilan qo'llangan. Muallif hatto, xalq tilida mavjud davlat amaldorlariga qo'yilgan laqablardan (kal hokim-Rukin) ham subyektiv munosabatini ifodalash maqsadida foydalanadi. Romanda eskirgan so'zlar (og'ochzor) ham uchraydi. Shu bilan birga, asar, garchanch sheva so'zlari "yarq" etib ko'zga tashlanmasa-da, Toshkent shevasida yozilganday taassurot uyg'otadi (Bu muallifning o'z jonli so'zlashuv tili bilan bog'liq). Roman tilini tadqiq etsak:

“Hamid Olimjon” ma’rifiy-biografik romanida obrazlilik va til tahlili

An’anaviy obrazli ifoda	Muallif yaratgan obrazli ifoda	Maqol va iboralar	Muallif subyektivligi
Sovuq sukunat (B-17)	Hurmat piligini biroz ko’tarib yuborgan(B-37)	Sichqonning ini ming tanga(B-25)	Rus yozuvchilari ta’sirida “odam bo’lgan”ini aytishar..(B-37)
Odamlar dengizi chayqalib, daf’atan to’lqinga keldi (B-17)	Poyezd...bepoyon adrlar dengizida g’arq bo’ldi (B-48)	Mehri borning qahri bor (61)	Hayotga sinfiylik ko’zoynagi bilan qarashi (62)
Bu dashtda bir kun yashash ham jahannamga tushib chiqqandek gap edi(B-21)	Tarix g’ildiragini ketga burib yuborgan Lenin (49)	Qo’yni-qo’njilarini puch yong’oq bilan to’ldirish (81)	O’zbek she’riyatidagi “ob-havo” (84)
Uning xotirasida o’qtin-o’qtin yuzib-qalqib yurdi(B-23)	Tarixning temiryo’lida ravon ketayotgan Rossiya (50)	Nozik mehmon (88)	Odam Atodan qolgan urf-odat varsm-rusumlar(115)
Paranji tashlagan ayollarga nisbatan “ozod bo’lgan qushlar” (B-43)	His-tuyg’ular shalolasi, ijod tongining otishi (53)	Joniga oro kiradi (96)	37-yil bo’roni (169) 37-yilning qilko’prigi (207)
Qalb torlarini tilga keltirdi (49)	Hayotnoma–biografik roman ma’nosida(68)	Kitoblarning “changini yutish” (106)	
She’riyat bulog’i, mehrning ko’rinmas shulalari (51)	Xijolat terlari mezbonning manglayidan jilg’a hosil qilib qoldi (88)	Tesha tegmagan gaplarni gapirib(108)	
Xira tortgan tushuncha, ... zanglagan qalb, (101)	Qalbining qandaydir elektrlangan tuyg’ulari,.. goh qalb torlari zamzama qiladi, goh chaqmoqdek uchqun sochadi (95)	Butun vujudi quloqqa aylanib (112)	
Yaratilajak asarlar urug’i(104)	Jinoyatning tug ilishi (101)	Hayoti qil ustida qoldi (169)	
Iste’dodning olmos qirralari (106)	Ilhom vodiysi (104)	Hayotiga chang solmagan (233)	
Muhabbat saroyining	Jonon suhbat (107)	Avzoyi buzuq	

muhtasham binosi (114)	Shoirning baxmal ovozi (169)	(233)	
She'r daryosi (117)	Iste'dodning tilla uzugi,... fozillik gavhari (110)		
Ishqiy zamzama (121)	Bokira tabiat (116)		
Ijod chashmasi (136)	Chinni tuyg'ular, billur tuyg'ular (119)		
Xayolot osmonidagi qora bulutlar (138)	Hadik va bezovtalik libosi (147)		
Ko'ngil daftari (147)	Go'zallik ma'budasi (150)		
Adabiyotimizning issiq bag'ri (178)	Bamisoli zabarjadning yaxlit quymasi (162)		
Adabiyotning shinelli yillari (212)	Shoir qalbining kardiogrammasi (222)		
Kurashga alanga beruvchi cho'g' (235)	Sevgi nurlarini sochuvchi fonus(oy) (253)		
G'alaba shamshiri (241)			
Hayot rishtalari daf'atan uzilgandek(287)			

Jadvalga tayanib, Naim Karimov mazkur ma'rifiy-biografik romanini yozishda ilmiylik qoliplariga ham, badiiylik kengliklariga ham shaxsan o'zi chegara qo'rganini ko'ramiz. Va nazdimizda, "ma'rifiy roman shunday bo'lishi kerak" degan tushuncha paydo bo'ladi. Romanda badiiylik, ilmiylik, hujjatlilik va shoir hayoti fonida berilgan tarixiy voqealar, asarni sinchiklab o'qigan kitobxon tafakkurida quyidagicha propotsiyani tashkil etadi. Bu, albatta, nisbiy ko'rsatkich.

Asarda badiiylik - 20%
Ilmiylik -15%

Hujjatlilik va tarixiy voqealar - 40%
Biografiya - 25%

E'tiborga molik bir jihat borki, uni alohida ta'kidlash lozim. Bu muallifning obyektini yaxshi bilishi, bu borada uzoq yillar to'plagan hayotiy tajribasidan kelib chiqib, vaziyat-holatlarni o'z ongi-yu qalbidan o'tkazib tasvirlashidir. Shuning uchun ma'rifiy romanlar markazida tasvir obyekti bilan yonma-yon tarzda muallif (N.Karimov) shaxsi turishini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Chunki epik bayon hamisha subyektiv bo'yoqdorligi, adabiyotshunos olimning nuqtai nazari bilan namoyon bo'ladi. "Hamid Olimjon" ma'rifiy-biografik romanida ham muallifning subyektiv munosabati ko'p o'rinlarda bilinib turadi. Olim-yozuvchi o'z qahramonini sevishi, ardoqlashi, unga muxlis ekanligi seziladi. Qahramonini kezi kelganda oqlaydi, unga hamdard bo'ladi, xatolarini tuzum va tarixiy sharoit tufayli deb biladi. Ehtimol, aynan shu jihat roman va esse janrlari sintezini yuzaga chiqargan. Boshqacharoq aytganda, so'nggi davr milliy adabiyotimiz janrlar strukturasiga muayyan islohlarni kiritgan. Bu mutlaq yangilik bo'lmay, dunyo adabiyoti, xususan postmodernizm oqimida ustuvor belgi sifatida namoyon bo'lgan adabiy-estetik hodisadir.

Albatta, ma'rifiy roman tipi hali o'ziga xos adabiy-estetik tajriba. Lekin u allaqachon o'z o'quvchilarini topishga ulgurdi. Shunday ekan, adabiyotshunosligimizda ma'rifiy roman namunalarini tahlil va tadqiq etish, ularning eng muhim ustuvor belgilarini aniqlash zaruriyati

mavjud. Ta'kidlanganiday, N.Karimov o'zi qalamga olgan obyektlar haqida katta material to'plagan, ilmiy izlanishlar olib borib, ayrimlari haqida maqola va biografik ocherklar, hatto monografiyalar yaratgan. Bu hol muallif uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki, N.Karimov ayrim asarlar genezisi bilan yaqindan tanish. Yozuvchi ularning yaratilishiga turtki bo'lgan omillar, obraz va sujet chiziqlarining real ildizlarigina emas, balki ifodalangan g'oyalar mohiyatini ham yaxshi biladi. Biroq, adib bu bilan cheklanib qolmaydi. U ma'rifiy roman doirasiga keng ko'lamli biografik materiallarni jalb qiladi. Bular:

Birinchidan, yozuvchi hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hujjatlardir. Ikkinchidan, u harakat qilgan muhit va shu qizg'in, murakkab muhit kishilari bilan o'zaro aloqalari haqidagi ma'lumotlardir.

Uchinchidan, qahramonning turli yozishmalari hamda u haqdagi yozma va og'zaki xotiralar.

Kuzatishlarimiz tasdiqlashicha, yuqorida ta'kidlangan boy materiallar ma'rifiy roman yozish uchun samarali vositalar rolini o'taydi. Biroq, biz ularni mutlaq to'liq hajmdagi biografik materiallar deya olmaymiz. Zotan, bu manbaalar asosida obyektning hayotini kunma-kun hujjatli asosda tiklash imkonsizdir. Shunday ekan, N.Karimov ma'rifiy roman bitish asnosida Cho'lpon, U.Nosir, Mirtemir, Shayxzoda, H.Olimjon hayotiga oid faktlarga jon ato etish, ayrim yetishmagan o'rinlarni o'z fantaziyasi asosida to'ldirishga ehtiyoj sezishi tabiiy.

Demak, ma'rifiy roman doirasiga biografik materiallar bilan bir qatorda o'z-o'zidan gipotetik unsurlar ham kirib keladi. Bu hol muayyan asar yozilgan davrda ijodkor tomonidan kechirilgan tuyg'u, kayfiyat-holat, quvonch va iztiroblarni qayta tiklashga urinish orqali kechadi.

Bizningcha, biografik kontekstdan intuitiv tarzda anglangan mazmun zinhor mutlaqlashtirilmasligi lozim. Obyekt biografiyasi u yashagan davr ijtimoiy hayoti, madaniy-ma'rifiy shart-sharoitlari, shaxsning asl tiynatidan aslo uzilib qolmasligi kerak. Afsuski, mavjud ma'rifiy romanlarda hamisha ham tahlil va talqinga kompleks yondashilmaydi. Chunki N.Karimov ijodkor qalbining suratini yaratishga intilishdek xayrli ishda o'z hassos qalbining sezimlari, ijodiy fantaziya va badiiy to'qimaga katta o'rin ajratadi. Romanda shoirning barcha asarlari tahlil qilinmaydi. Tahlilga tortilganlari ham, asosan, asarning yozilish sababi va shoir ilhomining manbalari bilan aloqador.

Xulosa qilib aytganda, Naim Karimovning ma'rifiy romanlari, Xususan, "Hamid Olimjon" romani, kompozitsiya, sujet, obraz va obrazlilik, til va uslub jihatidan adabiyotimiz tarixidagi asarlardan farq qiladi. Bu uning janr xususiyati bilan bog'liq. Shu bilan birga, muallifning boshqa shu turdagi romanlari bilan bir qancha nuqtalarda umumiylik, o'xshashlik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010,- B.74.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.; O'qituvchi, 1986,-B.406.
3. Adabiyot va Zamon: (Maqola, ocherk, adabiy portretlar). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, - B.368.
4. Karimov N. Hamid Olimjon. Ma'rifiy-biografik roman. – T.: Sharq, 2013, - B.304.